

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIGA MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLARNI SINGDIRISHDA JISMONIY TARBIYA VA SPORT TADBIRLARINING O'RNI

Annotatsiya. O'quvchilar bilan tashkil etiladigan va olib boriladigan jismoniy tarbiya va sport tadbirlari jarayonida ham amaldagi o'qitish vositalarining tegishlilaridan samarali foydalaniladi. Boshlang'ich sinflar bilan jismoniy tarbiya va sport tadbirlarini tashkil etish va o'tkazishda milliy harakatli o'yinlar asosiy usul va vosita hisoblanadi. O'yinlar orqali o'quvchilarga jismoniy sifatlarni rivojlantiriladi hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga xos bo'lgan tuyg'ular singdirib boriladi.

Kalit so'zlar. Jismoniy tarbiya, sport, tadbir, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, tuyg'ular, milliy o'yinlar.

РОЛЬ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ И СПОРТИВНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В ФОРМИРОВАНИИ НАЦИОНАЛЬНЫХ И ОБЩЕОБЩЕСТВЕННЫХ ЦЕННОСТЕЙ У МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ

Аннотация. В процессе организации и проведения физкультурно-спортивной работы со студентами эффективно используются соответствующие средства обучения. Народные подвижные игры являются основным методом и средством в организации и проведении физкультурно-спортивных мероприятий с учащимися начальных классов. С помощью игр учащихся развиваются физические качества и прививаются чувства, присущие национальным и общечеловеческим ценностям.

Ключевые слова. Физическое воспитание, спорт, мероприятия, национальные и общечеловеческие ценности, чувства, национальные игры.

THE ROLE OF PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS ACTIVITIES IN INFLUENCE OF NATIONAL AND UNIVERSAL VALUES IN ELEMENTARY STUDENTS

Annotation. In the process of physical education and sports activities organized and conducted with students, the relevant teaching aids are effectively used. National action games are the main method and tool in organizing and conducting physical education and sports events with primary school students. Through games, students develop physical qualities and instill feelings of national and universal values.

Key words: Physical education, sports, events, national and universal values, emotions, national games.

Bizning olib borayotgan tadqiqot ishimizda boshlang'ich sinf o'quvchilariga jismoniy tarbiya va sport tadbirlari orqali milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan tuyg'ularni singdirishning asosiy yo'nalishlarini shakllantirish va takomillashtirishda ilmiy metodik asoslarini ishlab chiqishga qaratilgan.

Mamlakatimiz olimlari tomonidan jismoniy tarbiya va sport tadbirlari orqali milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'quvchilar ongiga singdirishni ilmiy o'rganish va targ'ib qilishda R.Abdumalikov, T.S.Usmonxo'jaev, R.S.Salomov, O'.Ibragimov, A.Ataev, X.A.Meliev, Sh.Xonkeldiev, A.Abdullaev, K.Maxkamjonov, X.T.Rafiev, K.D.Yarashev, R.K.Qudratov, T.X.Xoldorov, F.Xo'jaev, K.Yusupovlarning ishlarini alohida ta'kidlash zarurdir. Milliy va umuminsoniy qadriyatlarni ilmiy o'rganish va targ'ib qilishda olimlardan akademik J.Tulenov, professorlar M.Murodov, U.Qoraboev, I.Jabborov, N.Bekmurodov, T.Javliev kabilarning ishlarini alohida ta'kidlash o'rinlidir.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlarning ta'lim-tarbiyaviy ahamiyati haqida professorlar X.Homidov, O.Musurmonova, S.Nishonova, M.Inomova, M.Davletshin, A.Atoev, F.Nasriddinov, T.Usmonxo'jaev, X.Rafiev, O'.Ibrohimov, R.Abdumalikov, F.Q.Axmedov, X.A.Meliev, Sh.Q.Mardonov, O.Jomoliddinova larning maqolalari, risolalari, uslubiy qo'llanmalari, monografiyalar va ular tomonidan ilmiy darajalar uchun yozilgan dissertatsiyalarini alohida takidlash lozim.

Yuqoridagi olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlarini ilmiy-nazariy va taxliliy o'rganib, boshlang'ich sinf o'quvchilariga jismoniy tarbiya va sport tadbirlari orqali milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan tuyg'ularni singdirishning pedagogik texnologiyalarini yanada takomillashtirish maqsadida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish rejalashtirildi.

Tadqiqot davomida avvalo maktab o'quvchilari bilan olib boriladigan jismoniy tarbiya va sport tadbirlari turlari o'rganildi, taxlil etildi. Taxlillar jarayonida umumiy o'rta ta'lim maktab o'quvchilari bilan olib boriladigan jismoniy tarbiya va sport tadbirlari asosan quyidagi yo'nalishlarda olib borilishi aniqlandi:

jismoniy tarbiya darslari.

darsdan tashqari jismoniy tarbiya ishlari:

darsgacha gimnastika mashqlari;

jismoniy tarbiya daqiqalari;

katta tanaffuslardagi uyushtiriladigan harakatli o'yinlar;

ommaviy jismoniy tarbiya va sport bayramlari;

"Alpomish" va "Barchinoy" maxsus test me'yorlari.

maktabdan tashqari jismoniy tarbiya ishlar:

bolalar va o'smirlar sport maktabi sport to'garaklari;

oiladagi jismoniy madaniyat yashash joylaridagi tashkil etiladigan tadbirlari kabilar kiradi. [1.12-15 bet]

Jismoniy tarbiya va sport tadbirlarini tashkil etishda bir qator parametrlarga tayanishga harakat qildik. Bular jismoniy tarbiya va sport tadbirlarining nomlanishi, ulardan foydalanishdan ko'zda tutiladigan maqsad, tadbirlar jarayonida vositalar, usullardan, metodlardan va o'yinlarni tashkil qilish uchun zarur bo'lgan jixozlardan foydalanish kabilardan iboratdir. Bularning barchasi jismoniy tarbiya va sport tadbirlari jarayoni haqida o'quvchilarda umumiy tasavvur qilish imkonini beradi. Shu bilan bir qatorda, pedagogik jihatdan muhim bo'lgan milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan tuyg'ularni singdirilishiga alohida e'tibor qaratilgan. Bu o'rinda ko'rsatma tariqasida a) dars jarayonida, b) darsdan tashqari jismoniy tarbiya ishlarida, v) maktabdan tashqari jismoniy tarbiya ishlarda amalga oshirishga e'tiborni qaratdik. Bu tadbirlarni tashkil etishda yuqorida ko'rsatilgan parametrlar alohida ahamiyatga ega hisoblanadi. Biz jismoniy tarbiya va sport tadbirlari orqali o'quvchilarga milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish maqsadida tashkil etdik. Jismoniy tarbiya va sport tadbirlari orqali birinchi navbatda o'quvchilar orasida ahillik, jamoaviylik, andishalik, mardlik, matonatlilik, sabrlilik, o'ziga-o'zi ishonch kabi insoniy xis-tuyg'ularni singdirishga e'tiborni qaratdik. [4.45-47 bet].

O'quvchilar bilan tashkil etiladigan va olib boriladigan jismoniy tarbiya va sport tadbirlari jarayonida ham amaldagi o'qitish vositalarining tegishlilaridan samarali foydalaniladi. Boshlang'ich sinflar bilan jismoniy tarbiya va sport tadbirlarini tashkil etish va o'tkazishda milliy harakatli o'yinlar asosiy usul va vosita hisoblanadi. O'yinlar orqali o'quvchilarga jismoniy sifatlar rivojlatiriladi hamda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga xos bo'lgan tuyg'ular singdirib boriladi.

Masalan: "Arqon tortish o'yini", "Xo'rozlar jangi", "Oq terakmi, ko'k terak", "Quloq cho'zma", "Chavandozlar", «Qun va tun» kabi o'yinlarda bolalar teng ikkiga bo'linib jamoa bo'lib o'ynaydi. Ularning kuchlari, deyarli teng bo'lishi lozim. Jamoaviy o'yinlarda albatta bir jamoagina g'alaba qozonadi mag'lub bo'lgan guruxlar albatta kelgusi o'yinda g'olib bo'lishini ishonch bilan, sabrlilik bilan kutishadi. Bu o'yinda bolalar kuchini sinab ko'rib, o'z imkoniyatlarini namoyon qiladi. Asosiysi ahillik, jamoaviylik, andishalik, mardlik, matonatlilik, sabrlilik, o'ziga-o'zi ishonch kabi insoniy xis-tuyg'ularni singdirib borish asosiy maqsadimiz. [2.38-41 bet].

O'quvchilarga jismoniy tarbiya va sport tadbirlari orqali milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirishda va takomillashtirishda bir qator pedagogik afzalliklar mavjud. Jismoniy tarbiya va sport tadbirlari jarayonining samaradorligi unda yaratilgan imkoniyatlar yordamida ta'minlanadi. Bunday imkoniyatlar sirasiga o'quvchilarning faol harakatlanishlarini ko'rsatish mumkin. Harakatning muhimligi pedagogik jihatdan yetarlicha asoslangan va baholangan.

O'quvchilar uchun jismoniy tarbiya va sport tadbirlarining muhim tarbiyaviy ahamiyati shundaki, jismoniy tarbiya va sport tadbirlari o'quvchilarning kayfiyatlarini ko'taradi, ularni tetiklik, dadillikka undaydi, quvnoqlik, hayotdan zavqlanish, qiyinchiliklarni bartaraf etish hissini shakllantiradi. Bularning barchasi o'quvchilarga milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan his-tuyg'ularni singdirishda asosiy vosita hisoblanadi.

Bunday tadbirlar avvalambor, o'quvchilarda yoqimli kechinmalarning vujudga kelishiga xizmat qiladi.

Kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadi, tadbirlari jarayonida hikoya, maruza, suxbat, tushuntirish, muxokama, topshiriq va ko'rsatma berish, namoyish etish, qisqa videoroliklar, taniqli sportchilar bilan

uchrashuvlar, mashqlar, tajribalar, o'yin va musobaqalarning tanlanganligi, o'quvchilarga milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan his-tuyg'ularni singdirishda ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Tadbirlarning maqsad va vazifalarini shakllantirishda o'qituvchilardan quyidagilarga amal qilish talabi qo'yiladi. O'qituvchi tadbir maqsadi va qoidalarini shakllantirishi bilan bir qatorda, o'quvchilarni uni o'tkazish tartibi bilan ham tanishtiradi. Tadbirni o'tkazish jarayonida amal qilinadigan vaqt o'quvchilarni mashg'ulot mazmuniga e'tibor qaratishlarini ta'minlaydi, topshiriqlarni bajarish jarayonining natijalanganligini kafolatlaydi. Tadbir o'tkaziladigan vaqtga qat'iy amal qilish tadbir jarayonida o'quvchilar oldiga qo'yiladigan muhim talablardan biridir.

Jismoniy tarbiya va sport tadbir jarayonida foydalaniladigan materiallar va vositalarni namoyish qilish ham o'qituvchi amal qiladigan muhim talablardan biri hisoblanadi. Bunday vositalar sirasiga hikoya, maruza, suxbat, tushuntirish, muxokama, topshiriq va ko'rsatma berish, namoyish etish, qisqa videoroliklar, taniqli sportchilar bilan uchrashuvlar, mashqlar, tajribalar, o'yin va musobaqalar kabilarni kiritish mumkin. O'qituvchi mazkur vositalar bilan ishlash prinsiplarini o'quvchilarga ko'rsatadi va tushuntirib beradi. Shu bilan bir qatorda, ularga mazkur vositalardan foydalanish yo'llari, ularning ahamiyati va o'ziga xos jihatlari ham o'qituvchi tomonidan tushuntiriladi. Shundan keyingina tadbir jarayoniga kirishiladi. [3.65-70 bet]

Jismoniy tarbiya va sport tadbirlarini amalga oshirish bosqichi o'qituvchining faol faoliyati bilan o'quvchilarning faol mustaqil bilim olishga yo'naltirilgan harakatlari bilan uyg'unlashadi. Bunday holat tufayli o'qituvchining harakatlari o'quvchilar faoliyatini kuzatish, ularga zarur maslahatlar berish va yordam ko'rsatishga yo'naltiriladi.

Haqiqatdan ham jismoniy tarbiya va sport tadbirlari jarayonida qo'llaniladigan vositalar boshlang'ich sinf o'quvchilarini har tomonlama rivojlantirish va takomillashtirishda xizmat qiladi. Albatta maktab o'quvchilari bilan olib boriladigan har qanday ta'limiy tarbiyaviy tadbirlar pedagogik qonuniyatlar va ta'limotlarga tegishli vositalariga asoslangan holda olib borilishni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Axmedov F.Q., Atamurodov Sh.O'. Boshlang'ich sinflarda jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi. O'quv qo'llanma. Toshkent -2019 yil. 184 b.
2. Maxkamjonov K., Xo'jaev F. Jismoniy tarbiya. (1-4-sinflar) o'quv qo'llanma. 3-nashri. T.: "O'zbekiston" - 2018 yil.
3. Pedagogika: ensiklopediya. III -jild / tuzuvchilar: jamoa. - II 29 Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyot, 2017, 424.
4. Atamurodov Sh.O'. Quvondiqov A.T. The role of physical education and sports events in immigration of emotions based on national and general human values to primary class students // Mental enlightenment scientific-menhodological journal. DOI: <https://doi.org/10.37547/mesmj-V4-I5-07> Pages:56-59.
5. Atamurodov Sh.O'. Axmedov S.A. O'quvchilarga jismoniy tarbiya va sport tadbirlari vositasida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni singdirish // "Taffakur ziyosi" ilmiy-uslubiy jurnal. 2024/2 son.
6. Atamurodov Sh.O'. Tursunboyev Sh.A. Educational significance of physical culture and sports in educational institutions // Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. 2181-2675/© 2022 in Xalqaro tadqiqot LLC. DOI: 10.5281/zenodo.6631054 This is an open access article under the Attribution 4.0 International(CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>).
7. Atamurodov Sh.O'. Axmedov F.Q. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga jismoniy madaniyat orqali milliy qadriyatlarni shakllantirish // Boshlang'ich ta'limning dolzarb masalalari: Muammo va yechimlar mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumani. Materiallari 2019 yil 18-19 mart. Jizzax shaxri.